O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”
O‘quv ishlari bo’yicha prorektor
__________ R.G‘.Jumayev
«___»_________2022 y

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

«TURIZM VA MEHMONXONA XO’JALIGI» KAFEDRASI

# “MEHMONXONA INTERYERI VA LANDSHAFTI” FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH, NAZORAT QILISH VA BAHOLASH BO’YICHA

# USLUBIY KO‘RSATMA

Buxoro-2022

Mazkur uslubiy ko`rsatma nashri uchun BuxDU o`quv-metodik kengashi ruxsat bergan (2022-yil 25 noyabrdagi 1-son yig`ilish bayonnomasidan ko`chirma).


**Tuzuvchi:**

**N.U.Axrorova** - **BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi o'qituvchisi.**

**Taqrizchilar:**

1. **Hamroyev H.R.** - BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi professori, i.f.n.
2. **Azimov B.F.** - BuxMTI, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n.




## 1. Kirish

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavriat bosqichi barcha yo'nalishlar 4-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

## 2. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zdatutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Mehmonxonalar interyeri va landshaftini tahlil qilish, baholash, umumiy dizayn qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lish, mavjud mehmonxonalar interyer dizayni jozibadorligini oshirish maqsadida turli taklif va loyihalar ishlab chiqish Ekskursiya xizmatini tashkil etish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

**Talabaning mustaqil ishi** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan–semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to'garaklarida ishtirok etish;

- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar yotoqxonasidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, butun o'quv jarayoni to'laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda turizm sohasiga doir dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan ekskursiya xizmatlarini tashkil etish va boshqarish fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar qo'rinishida bo'lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, ekskursiya xizmatini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida talabalarning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakl va turlaridan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Talabalar mustaqil ishlarining shakl va turlari**

| № | Mustaqil ishlarning shakllari | Mustaqil ishlarning turlari |
|---|---|---|
| 1. | Reproduktiv shakldagi mustaqil ishlar | - fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash va konspekt qilish;<br>- O'zbekiston Resublikasi Qonunlari, Prezident asarlari va ma'ruzalarini, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni mustaqil o'rganish va konspektlashtirish;<br>- ma'ruzalarni video hamda audio orqali ko'rish, eshitish va konspekt qilish;<br>- multimedia vositalari orqali slaydlar, video materiallarni ko'rish, eshitish va o'zlashtirish;<br>- o'quv materiallarini qaytarish, yod olish va boshqalar. |
| 2. | Anglash-izlanish (qidirish) shaklidagi mustaqil ishlar | - mustaqil ravishda axborotlar, ko'rgazmali vositalarni tayyorlash, ma'ruzalar va boshqa materiallarni o'rganish;<br>- hisob-kitob va analitik ishlarni bajarish, testlar yechish;<br>- seminar, amaliy va boshqa mashg'ulotlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish;<br>- uy ishlari, nazorat ishlari, taqdimotlar, referatlar, keys-stadilar va boshqalarni bajarish. |
| 3. | Ijodiy ish shaklidagi mustaqil ishlar | - esse, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari tayyorlash va himoya qilish;<br>- ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish va ilmiy hisobotlar tayyorlashda qatnashish;<br>-talabalarning ilmiy to'garaklarida ishtirok etish;<br>- ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar tayyorlash hamda chop ettirish. |



**Video-rolik tayyorlash.** Talabalarga berilgan muayyan mavzu doirasida ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirishi va tushuntirib, izohlab bera olishi uchun video-rolik tayyorlash vazifasi beriladi. Bunda talabalar video-rolik tayyorlashda ijodiy yondashgan holda taqdim qilishlari mumkin bo'ladi.

**SWOT-tahlil qilish.** Ma'lum bir mavzu yuzasidan mavjud resurslarning kuchli, kuchsiz tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini chuqur o'rganish maqsadida talabalarga beriladi.

**Esse yozish.** Talabalarga muayyan mavzuda o'zlarining fikr-mulohazalarini kengroq va aniqroq bayon etishlari uchun vazifa sifatida beriladi.

**Guruh loyihasini tuzish.** Talabalarga biror mavzuda chuqurroq mushohada yuritishlari, loyihaning iqtisodiy-tashkiliy jihatlariga e'tibor bergan holda guruh bilan birgalikda aktual loyiha tuzishlari maqsadida vazifa sifatida beriladi.

**Venn diagrammasidan foydalanish.** Talabalarga ma'lum bir mavzu o'rganilayotganda mazkur mavzuning boshqa ilgari o'tilgan mavzu bilan o'xshash umumiy jihatlari va alohida farqli xususiyatlarini bir-biridan farqlash maqsadida vazia sifatida beriladi. Bunda talabalar mavzuni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

**Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

**Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.**

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

**Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalari** ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiqdir. «Mehmonxona interyeri va landshafti» fani bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferentsiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet va fakultetlararo konferentsiyaga taqdim etish va o'tkazish;

3-bosqich – fakultetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo'lgan konferensiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruza va chiqishlarini guruhlarning qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

### 3.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalaribilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

### 4.Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

•yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
•zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
•axborot manbalaridan samarali foydalanish;
•an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
•elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;



•Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
•ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
•ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
•topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
•ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

### 5. Talabalar mustaqil ishi mavzulari va mazmuni, ularni bajarish shakllari

«Mehmonxona interyeri va landshafti» fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

**2-jadval**

**Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajarish muddati | Ajratilgan soatlar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Mehmonxonalar jozibadorligini oshirishda interyer tushunchasining mohiyati; | Esse/ Taqdimot tayyorlash | 1-hafta | 2 |
| 2 | Mehmonxona rivojlanishida landshaft to'g'risida tushuncha; | Esse/ Taqdimot tayyorlash | 2-hafta | 4 |
| 3 | Mehmonxona interyeri va landshaftida stil tushunchasi; | Taqdimot tayyorlash | 3-hafta | 4 |
| 4 | Mehmonxona interyerida Hindiston, Xitoy uslublari; | Venn diagrammasini tuzish/ Taqdimot tayyorlash | 3-hafta | 4 |
| 5 | Mehmonxona interyerida Yapon uslubi; | Venn diagrammasini tuzish / Taqdimot tayyorlash | 4-hafta | 4 |
| 6 | Mehmonxona interyerida Qadimgi Gretsiya va Rim uslublari; | Venn diagrammasini tuzish / Taqdimot tayyorlash | 5-hafta | 4 |
| 7 | Dastlabki interyer-dizayn maktablari; | Taqdimot tayyorlash | 6-hafta | 4 |
| 8 | Mehmonxonalar jozibaligini oshirishda zamonaviy dizayn uslublari; | Video/ Taqdimot tayyorlash | 7-hafta | 4 |
| 9 | Mehmonxona interyerida Hi-tech: Xay-tek uslubi; | Video/ Taqdimot tayyorlash/ Venn diagram | 8-hafta | 4 |
| 10 | Mehmonxona interyerida minimalizm uslubi; | Venn diagrammasini tuzish / Taqdimot tayyorlash/ Video | 9-hafta | 4 |
| 11 | Mehmonxona interyerida Op-art uslubi; | Video/ Venn diagrammasini tuzish / Taqdimot tayyorlash | 10-hafta | 4 |
| 12 | Mehmonxona interyerida Pop-art uslubi; | Video/ Venn diagrammasini tuzish / | 11-hafta | 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Taqdimot tayyorlash | | |
| 13 | Mehmonxona interyerida Metabolizm uslubi; | Video/ Venn diagrammasini tuzish / Taqdimot tayyorlash | 11-hafta | 4 |
| 14 | Mexmonxonalarda landshaft dizaynining uslublari; | Taqdimot tayyorlash. Test. | 12-hafta | 4 |
| 15 | Mehmonxona landshaftini yaratishda installyasiya tushunchasi; | SWOT tahlili | 12-hafta | 4 |
| 16 | Mehmonxona landshaftini yaratishda kichik me'moriy shakllar. | Savollar. Taqdimot tayyorlash | 13-hafta | 4 |
| 17 | Mehmonxona binolari va sayyohlik majmualarida interyerni tashkil qilish usullari. | Savollar. Taqdimot tayyorlash | 13-hafta | 4 |
| 18 | Ommaviy madaniyat va sport va dam olish ob'ektlariga qo'yiladigan talablar. | Savollar. Taqdimot tayyorlash | 14-hafta | 4 |
| 19 | Hilton mehmonxonalarini loyihalash, qurilish va ta'mirlash standartlari. | Guruh loyihasi. SWOT tahlili | 14-hafta | 4 |
| 20 | Mehmonxonalarni loyihalash, qurish va ta'mirlash bo'yicha Yevropa standarti. | Guruh loyihasi.. SWOT tahlili | 15-hafta | 4 |
| 21 | 5 yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar. | Jadvallashtirish. Venn diagrammasini tuzish. Test | 15-hafta | 4 |
| 22 | To'rt yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar. | Jadvallashtirish. Venn diagrammasini tuzish. Test | 16-hafta | 4 |
| 23 | 3 yulduzli mehmonxona uchun xalqaro talablar. | Jadvallashtirish. Venn diagrammasini tuzish. Test | 16-hafta | 4 |
| 24 | Lobbi guruhi va ovqatlanish guruhi binolarining sxemalari. | Jadvallashtirish. Venn diagrammasini tuzish. Test | 17-hafta | 4 |
| 25 | Nogiron sayyohlar uchun turar joy. Umumiy talablar. | Muhokama. Test | 17-hafta | 4 |
| 26 | Yotoqxonalarga qo'yiladigan umumiy talablar. | Esse. Test | 18-hafta | 4 |
| 27 | Motellarga umumiy talablar. | Muhokama. Esse. | 18-hafta | 4 |
| | **Jami:** | | 18 hafta | 106 soat |

**6. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi**

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va



uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendar - tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Maslahat darsi tegishli fanning professor - o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fanning professor - o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob - kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'quv jarayonining tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladigan dars jadvaliga kiritiladi.

**6.Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi**

Mustaqil ishlarning bajarilishi "Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Talabalar mustaqil ishlarini baholash fan bo'yicha ishlab chiqilgan quyidagi reyting baholash tizimi orqali ifodalanadi:

**a) agar mustaqil ish yozma tarzda o'tkazilsa - baholash tartibi**

| Baho | Baholash mezoni |
|---|---|
| A'lo | Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritilgan bo'lsa, misolar bilan fikrini to'ldirsa, mustaqil mushohada kiritsa, atama va formulalardan to'g'ri foydalangan bo'lsa |
| Yaxshi | Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritilgan bo'lsa, misolar bilan fikrini to'ldirsa, mustaqil mushohada kiritsa, lekin atama va formulalardan to'g'ri foydalanishda sodda xatoliklarga yo'l qo'ysa |
| Qoniqarli | Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritishga intilgan bo'lsa, misolar bilan fikrini to'ldirmasa, mustaqil mushohadasi bo'lmasa, atama va formulalardan foydalanishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'ysa |
| Qoniqarsiz | Savollarga noto'g'ri javob yozilgan bo'lsa, ularning mohiyatini yotirmasdan qolgan bo'lsa, misollar bilan dalillamasa |

**b) agar mustaqil ish taqdimot tayyorlash, SWOT-tahlil o'tkazish, ma'lumot to'plash va tahlil qilish tarzida o'tkazilsa - baholash tartibi**

| Baho | Baholash mezoni |
|---|---|
| A'lo | Talab darajasida rasmiylashtirilgan<br>Mavzuga mos reja tuzilgan<br>Rejaga rioga qilib matn yozilgan<br>Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan<br>Fikr misollar bilan dalillangan<br>Matnda jadval, diagramma, formulalar bor<br>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati to'liq |
| Yaxshi | Mavzuga mos reja tuzilgan<br>Rejaga rioya qilib matn yozilgan<br>Ta'lim yangiliklarni o'z ichiga olgan<br>Fikr misollar bilan dalillash etarli emas<br>Matnda, jadval, diagramma, formula kam<br>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati to'liq ko'rsatilmagan |

| | |
|---|---|
| Qoniqarli | Mavzuga mos reja tuzilgan<br>Rejaga rioga qilib matn yozilgan<br>Ta'lim yangiliklarni o'z ichiga olmagan<br>Fikr misollar bilan dalillash kam<br>Matnda, jadval, diagramma, formuladan deyarli foydalanilmagan<br>Adabiyotlar juda kam |
| Qoniqarsiz | Qo'yilgan masalaning ayrim qirralari yoritilgan bo'lsa, hajm jihatdan juda kam bo'lsa, lekin muammoni qisman yoritib bilgan bo'lsa, reja mavzuga unchalik mos bo'lmasa, ayrim xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, mavzusidan keskin chetga chiqishlar bo'lsa va ko'rilayotgan masalaga bag'ishlanmagan bo'lsa, u talabga javob bermaydi |

## 7. Adabiyotlar

### Asosiy adabiyotlar


1. Вильчик Н.П. Архитектура зданий: учебник: - М: инфра-М,2013
2. Калинин В.М., Соколова С.Д., Оценка технического состояния зданий: учебник - М: инфра - М, 2013
3. Калинин В.М., Соколова С.Д., Топилин А.Н. Обследование и испытание конструкций зданий и сооружений: учебник - М: инфра-м,2013
4. Фокин С.В. Системы отопления, вентиляции и кондиционирован ия воздуха: устройство, монтаж и эксплуатация: учебное пособие --М: альфа-м: инфра-м, 2013


### Qo'shimcha adabiyotlar


5. «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861- son.
6. «O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 7 fevral 2017 g.,№ UP-4947.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boyicha qoshimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni-03.02.2018 y. № PF-5326
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori-06.02.2018 y., № PQ-3509





10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasi Davlat mulki qomitasining turizmni rivojlantirish boyicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari togrisida" qarori -06.02.2018 y., PQ-3510
11. Сербин Е.П. Строительные конструкции:учебное пособие .-М.:Академия, 2013
12. Маилян Л.Р., Лазарев А.Г.: Конструкции зданий и сооружений с элементами статики: учебник - М: инфра-м, 2013
13. Лебедев С.В.: Сварка. Введение в специальность: учебное пособие - М: Альфа - М: инфра - М, 2013


### Internet saytlari


14. www.lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
15. www.mineconomu.uz — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti
16. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
17. www.interunion.ru - turistik assosiasiyalar sayti
18. www.world-tourism.org - butun jahon turizm tashkiloti sayti
19. www.wttc.org - turizm va sayohat bo'yicha butun jahon kengashi sayti
20. www.e-tours.ru - ishbilarmon turlar, ko'rgazmalar va konferensiyalar sayti
21. www.travel-library.com - sayohatchilar elektron kutubxonasi
22. www.ziyonet.uz -ta'lim portali

www.uzbekturism.uz – O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy sayti